

SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

№ S/2 (3) - 2023

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES
AND SOCIAL SCIENCES



ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL



ISSN: 2181-1342 (Online)

Сайт: <https://scienceproblems.uz>

DOI: 10.47390/B1342V3SI2Y2023

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

Махсус сон

№ S/2 (3)-2023

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES
Special Issue

ТОШКЕНТ-2023

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Гайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарқанд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

Crossref DOI:

Таҳририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

Google Scholar

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият.

Таҳририят манзили:

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

МУНДАРИЖА

07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

Рахманова Мавлуда Эркин қизи СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ ЎЗБЕКИСТОН ССРГА ХАЛҚЛАРНИ МАЖБУРИЙ КЎЧИРИШ СИЁСАТИ ТАРИХШУНОСЛИГИ.....	9-16
Икромжонов Акмалжон Махмуджонович ФАХРУДДИН ЎЗЖАНДИЙ ЯШАГАН ДАВРДА МОВАРОУННАҲР ИЖТИМОИЙ-СИЁСИЙ ВАЗИЯТ ВА ИЛМ ФАН РИВОЖИ.....	17-25
Холдоров Зоҳиджон Валижон ўғли ТУРКИСТОН ЛЕГИОНИНИНГ ТАШКИЛ ТОПИШИ ТАРИХИДАН.....	26-34
Хамидова Дилфуза Улуғбек қизи НОМОДДИЙ МАДАНИЙ МЕРОС ИЖОДКОРЛАР НИГОҲИДА.....	34-41
Nag'ashboyev Qazbek Bozorboy uli SULTON RAHMONOV – SAYYORANING ENG KUCHLI ODAMI.....	42-49
Махмудов Махмуд Авазович ЯНГИ ИҚТИСОДИЙ СИЁСАТ ШАРОИТИДА ДЕҲҚОН ХЎЖАЛИКЛАРИНИ ИЖТИМОИЙ ТАБАҚАЛАШУВИ.....	50-58
Mamatov Bektosh Tolibjon o'g'li YALANGTO'SH VANODIR VA ASHTARXONIY HUKMDORLAR.....	59-66

08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Muminova Elnoraxon Abdukarimovna “YASHIL” IQTISODIYOTGA O'TISHNING HORIJY TAJRIBALARI.....	66-75
Файзуллоев Мирсаид Шухратович СОЛИҚ НАЗОРАТИ ТИЗИМИДА КАМЕРАЛ СОЛИҚ ТЕКШИРУВЛАРИНИ ЎТКАЗИШ АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ.....	76-85
Кахарова Нилуфар Эркинжоновна ОКР МЕТОДОЛОГИЯСИ ХАҚИДА ТУШУНЧА, МАҚСАДИ, АФЗАЛЛИГИ, ЖАРАЁНДАН КУТИЛАДИГАН НАТИЖАЛАР.....	86-91
Насруллоев Ҳаётжон Хабибуллоевич СОЛИҚ МАЪМУРЧИЛИГИГА ЗАМОНАВИЙ АХБОРОТ-КОММУНИКАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИ ЖОРИЙ ЭТИШ ОРҚАЛИ СОЛИҚ БАЗАСИНИ КЕНГАЙТИРИШ ЙЎЛЛАРИ.....	92-99
Rahmonov Mirvoxid Rajabovich HUDUDNING INVESTISION JOZIBADORLIGI OMILLARINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	100-107
Насруллоев Ҳикматулло Хабибуллоевич ИҚТИСОДИЙ ИСЛОҲОТЛАРНИ ЖАДАЛЛАШТИРИШ УЧУН ЗАМОНАВИЙ РАҚАМЛИ ЕЧИМЛАРНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	108-115
Тоштемиров Шохруҳ Тошпўлатович ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ КАПИТАЛ ВА УНИНГ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШДА ИННОВАЦИОН ЁНДАШУВНИНГ АҲАМИЯТИ.....	116-120

Насимов Равшанжон Азимович МАМЛАКАТИМИЗДА СОЛИҚ ЮКИНИНГ СОЛИҚ ТЎЛОВЧИЛАР ФАОЛИЯТИГА ТАЪСИРИНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ	121-130
Nabieva Nilufar Muratovna MARKETING AUDIT AND ITS IMPACT ON IMPROVING THE COMPETITIVENESS OF THE COMPANY.....	131-139
Отамуродов Нуриддин Нажмиддинович КИЧИК ВА ЎРТА БИЗНЕС ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИНИ COVID-19 ИНҚИРОЗ ДАВРИДА УЛАРНИНГ ФАОЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА СОЛИҚҚА ТОРТИШ МАСАЛАЛАРИ	140-148
Hoshimov Jahongir Ravshanbek o'g'li TO'G'RIDAN – TO'G'RI HORIJYIY INVESTITISYALARNI JALB QILISHDA MAMLAKAT XATARLARINI KAMAYTIRISH.....	149-155
Yusupov Farruxbek Farxodovich O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ MA'MURCHILIGIDA SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	156-162
Kunduzova Kumrixon Ibragimovna KICHIK BIZNES KORXONALARIDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH VA BYUDJETLASHTIRISHNING XUSUSIYATLARI	163-172
Зиёдинова Нилуфар Зариф қизи ИНВЕСТИЦИОН ҚАРОРЛАР ҚАБУЛ ҚИЛИШДА МОЛИЯВИЙ ҲИСОБОТЛАРНИНГ ЎРНИ	173-179
Насимджанов Юнусжон Зоҳидович МАМЛАКАТИМИЗ ҲУДУДЛАРДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ ТОВАР ИШЛАБ ЧИҚАРУВЧИ ЮРИДИК ШАХСЛАРНИНГ ЕР СОЛИҒИ МАЪМУРЧИЛИГИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ	180-187
09.00.00 - ФАЛСАФА ФАНЛАРИ	
Ҳакимов Акмалжон Мирзағаниевич ЦИВИЛИЗАЦИЯ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ ГНОСЕОЛОГИК МОҲИЯТИ	188-192
Холмирзаев Нодиржон Низомжонович УРБАНИЗАЦИЯ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ СИЁСАТИ ВА УНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ	193-198
Voboqulov Abror Abdug'ani o'g'li “OPEN ARTIFICIAL INTELLIGENCE GPT” TIL MODELINING FALSAFIY Tahlili	199-204
Ялгашев Бунёд Махмудович САМАРҚАНД ВОҲАСИ ЭТНИК ГУРУҲЛАРИНИНГ КЕЛИБ ЧИҚИШИ ВА УЛАРНИНГ ЯШАШ ТАРЗИ	205-213
Safarov Maqsudali ABU BAKR AR-ROZIYNING “TIBBI RUHONIY” (RUH TIBBIYOTI) ASARIDA G'AZABNI VA INSONNING O'Z KAMCHILLIKLARINI BARTARAF QILISH HAQIDA MULOHAZALAR	214-219
Сохибова Лола Жонибоевна ШАХС МАДАНИЙ САВИЯСИ – МАДАНИЙ РИВОЖЛАНГАНЛИК ИФОДАСИ	220-224

Адашова Махсума Махмудбоевна
ИМОМ АБУ МАНСУР МОТУРИДИЙ ВА МОТУРИДИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ – ДУНЁ
ОЛИМЛАРИ НИГОҲИДА.....225-231

Mukhammediyarova Akhmaral
PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE CONCEPT OF NOOSPHERIC DEVELOPMENT IN THE
ECOLOGICAL AND GLOBAL SECURITY SYSTEM.....232-239

10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Tilovov Ozod, Isoqulova Gulxon
FRAZEOLOGIK BIRLIKLARDA SONLARNING QO‘LLANILISHI VA ULARNING RAMZIY
MA‘NOLARI.....240-245

Surmilova Elena
GENDER STUDIES IN LINGUISTICS AND THEIR APPLICATION IN ENGLISH LANGUAGE
TEACHING246-252

Олимова Дилафрузхон Бахтиёржон қизи
ТИЛШУНОСЛИҚДА БАҲО КАТЕГОРИЯСИ ВА УНИНГ ЎРГАНИЛИШИ253-257

Djurayev Dilshod Mamadiyarovich, Radjabova Madinabonu Raimovna
XITOIY TILI GRAMMATIKASIDAGI “NATIJA TO‘LIQLOVCHISI (结果补语)”258-262

Azzamov Yusufjon Radjaboy o‘g‘li, Jo‘rayeva Xayriniso Shavkat qizi
EKOJURNALISTIKANING QO‘LLANILISH KATEGORIYALARI263-268

Fillipova Olga Igorevna
CONVERGENCE OF STYLISTIC DEVICES AS A CATEGORY OF REDUNDANCY.....269-278

Ismoilova Dilorom Rustamjon kizi
LEXICAL UNITS OF THE SEMANTIC FIELD “MURDER”279-285

12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР

Ильясов Баходир Ильясович
ELEKTRON DAVLAT XIZMATLARINI KO‘RSATISHNING TASHKILY-HUQUQIY MEKANIZMI VA
UNING RIVOJLANISH YO‘LLARI286-293

Чориева Хуршидабону Хуррам қизи
ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛАР ЎЗИНИ ЎЗИ БОШҚАРИШ ОРГАНЛАРИНИНГ
ФУҚАРОЛИК-ҲУҚУҚИЙ МУНОСАБАТЛАРДА ИШТИРОКИ294-299

Хаётов Анвар Хусанович
ХАЛҚАРО ОЛИМПИА ҚЎМИТАСИНИНГ МУХТОР МАҚОМИ ВА ТУРЛИ ҲУҚУҚ
СУБЪЕКТЛАРИ БИЛАН МУНОСАБАТЛАРИ300-307

13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ

Журабекова Хабиба Мадаминовна
РЕЧЕВАЯ АКТИВНОСТЬ КАК ВАЖНЫЙ ФАКТОР КОММУНИКАТИВНОЙ
КОМПЕТЕНТНОСТИ308-315

Tursunova Aziza Xoshimovna WEB TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BILIMNI NAZORAT QILUVCHI DIDAKTIK VOSITALAR YARATISH USULLARI	316-321
Oblanazarov Faxriddin Asadovich FUTBOLCHILARNI TAYYORLASHDA TA'LIM VA MASHG'ULOTNING ASOSIY QONUN- QOIDALARINI AMALGA OSHIRISH	322-329
Isroilova Dildora Muxtarovna, Solijonova Dildora Ulugbekovna IJTIMOIY-SIYOSIY MATNLAR TARJIMASINI O'QITISHDA LINGVOMADANIY OMILLARNING O'RNI	330-335
Satvoldiyev Faxriddin Akbarali o'g'li MAKTAB O'QUVCHILARI HUQUQIY TA'LIM – TARBIYASINI SHAKLLANTIRISH BORASIDA OLIB BORILGAN TAJRIBA SINOV ISHLARI NATIJALARINING PEDAGOGIK TAHLILI	336-342
Jurayev Bobomurod Tojiyevich SHARQDA PEDAGOGIK FAOLIYATNING MAYDONGA KELISHI VA RIVOJLANISHI	343-350

- сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019.
9. Таниева Г.Ялангтўш Баҳодирнинг Бухоро хонлиги сиёсий барқарорлигини таъминлашдаги ўрни.Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019.
 10. Хидирова Н.У. Баҳодир Ялангтўш шахсига доир чизгилар// Баҳодир Ялангтўшнинг Марказий Осиё ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётида тутган ўрни” мавзусидаги халқаро конференция материаллари ,Самарқанд,2019
 11. Zamonov A. Вухоро хонлиги тарихи.-Toshkent:”BAYOZ”, 2021.
 12. Chabryar Adle and Irfan Habib.History of civilizations of central Asia/ Volume V.- UNESCO Publishing.2003.

08.00.00 – Иқтисодиёт фанлари

Muminova Elnoraxon Abdukarimovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor,
"Iqtisodiyot" kafedrası,
Farg'ona politexnika instituti

"YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHNING XORIJIY TAJRIBALARI

Annotasiya. Maqolada "yashil" iqtisodiyotga o'tish, yashil iqtisodiy o'sishga erishishning xorijiy tajribalari yoritilgan. Xorijiy mamalakatlarda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan muqobil energiya manbalarini rivojlantirish, elektr enegiyasi ishlab chiqarish evolyusiyasi, Braziliyada gidroenergetika ishlab chiqarish, 2030 yilga qadar asosiy ekologik toza energiya texnologiyalarining bozor hajmi tahlil qilingan. Shuningdek, OECD mamlakatlari uchun oylik elektr energiyasi ishlab chiqarish va savdo ma'lumotlari va boshqa bir qancha mamlakatlar uchun elektr energiyasi ishlab chiqarish ma'lumotlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, yashil energiya, ekologik toza manbalar, tabiiy gaz, toza chuchuk suv, energiya ishlab chiqarish hajmi.

Muminova Elnorakhan Abdukarimovna
doctor of economic sciences, professor,
"Economics" department,
Fergana polytechnic Institute

FOREIGN EXPERIENCES OF TRANSITION TO "GREEN" ECONOMY

Abstract. The article covers foreign experiences of transition to "green" economy and achieving green economic growth. Among the main directions of development of the "green" economy in foreign countries, the development of alternative energy sources, the evolution of electricity production, the production of hydropower in Brazil, and the market size of the main environmentally friendly energy technologies until 2030 were analyzed. Also monthly electricity production and trade data for OECD countries and electricity production data for several other countries are included.

Key words: green economy, green energy, ecologically clean sources, natural gas, fresh water, energy production volume.

Муминова Эльнорахан Абдукаримовна
доктор экономических наук,
профессор, кафедра "Экономика",
Ферганский политехнический институт

ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ ПЕРЕХОДА К «ЗЕЛеноЙ» ЭКОНОМИКЕ

Аннотация. В статье освещается зарубежный опыт перехода к «зеленой» экономике и достижения зеленого экономического роста. Среди основных направлений развития «зеленой» экономики в зарубежных странах были названы развитие альтернативных источников энергии, эволюция производства электроэнергии, производство гидроэнергии в Бразилии, объем рынка основных экологически чистых энергетических технологий до 2030 года. проанализировано. Также включены

ежемесячные данные о производстве и торговле электроэнергией для стран ОЭСР и данные о производстве электроэнергии для ряда других стран.

Ключевые слова: зеленая экономика, зеленая энергия, экологически чистые источники, природный газ, пресная вода, объем производства энергии.

DOI: <https://doi.org/10.47390/B1342V3SI2Y2023N08>

Kirish

Jahon amaliyotida hududlarni barqaror rivojlantirish, ularning iqtisodiy hamda ekologik tizimlarini o'zaro samarali uyg'unligida o'rganishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini ishlab chiqarish uglerod chiqindilarini kamaytirish SO₂, yashil texnologiyali issiqxonalarini ko'paytirish, yashil texnologiyalar asosida suvni qayta ishlab chiqish va yetkazib berish, "yashil" transport vositalari, avtomobillarni elektrlashtirish, "yashil" uy xo'jaliklari, shaharlarda toza ekologik mahsulotlar ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligida ekologik toza, organik oziq-ovqatlarni ishlab chiqarish bugungi kunda muhim hisoblanadi.

"Yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va uning barqaror rivojlanishiga o'tish global darajada ham, O'zbekiston uchun ham ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Barqaror rivojlanish konsepsiyasi insoniyat kelajagi uchun muhim manba bo'lib, u BMTning qaror va hujjatlarida o'z ifodasini topgan. Barqaror rivojlanishning iqtisodiy-ekologik asosi, bu "yashil" iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir. Hozirgi beqaror tendensiyalarni bartaraf etish uchun 2015 yilda BMTning 2030 yilgacha bo'lgan davr uchun 17 ta "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadlarining o'ziga xos mezonlari aniqlandi.

"Yashil" iqtisodiyotga o'tishning jahon tajribasida "yashil" iqtisodiyot rivojlanishidagi quyidagi umumiy tendensiyalarni ko'rish mumkin:

- 2050 yilga borib sayyoramiz aholisi 9 mlrd.ga boradi;
- global iqlim o'zgarishi yuz beradi;
- energiya resurslar, xom-ashyo, oziq-ovqat mahsulotlari bahosi 40-50 %gacha oshadi va turli xil inqirozlar vujudga keladi;
- atrof-muhit ifloslanadi, yiliga 11 mln. gektar o'rmonlar kesiladi, ekotizimlar buziladi, bioxilma-xillik kamayadi va tuproqning tabiiy unumdorligi pasayadi;
- ekologik qochoqlar vujudga keladi;
- ichimlik suv hajmi 60-70 %ga kamayadi;
- 2030 yilda sayyoramiz aholisining 47 %i ichimlik suvi yetishmasligidan azob chekadi;
- yer shari zaharli chiqindilarga to'lib-toshib, "ko'milib" qoladi.

Tabiat va iqtisodiyotning mukammal muvozanatlashgan o'zaro munosabati yashil iqtisodiyot modelida yaqqol namoyon bo'ladi. Yashil iqtisodiyot keyingi yillarda rivojlanib, iqtisodiy-ijtimoiy tizimga aylandi. "Yashil" iqtisodiyotning bosh vazifasi ishlab chiqarish hamda iste'mol qilish jarayonlarini ekologik standartlarga mos ravishda o'zgartirishdan iborat. Biznes muhitida "Yashil" iqtisodiyot tushunchasiga juda katta e'tibor berilmoqda. Moliyaviy fondlar, yirik kapital egalari, biznesmenlar va ba'zi davlatlarda oddiy fuqarolar (masalan Skandinaviya, Singapurda) «Yashil» iqtisodiyotning targ'ibotchilariga aylangan. Misol uchun dasturlarda foyda solig'ini 30 %gacha besh yil davomida pasaytirilgan bo'lsa, Norvegiya, Niderlandiyalarda quyosh energiyasini qo'shni davlatlarga eksport qilishdan keladigan yillik foyda daromdadning 20 %ini tashkil qilgan. «Yashil» iqtisodiyotni rivojlantirishda Yaponiya, Janubiy Koreya, Shvesiya, Singapur davlatlari liderlar hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi

A. Midilli, I.Dincer, M. Aylar o'z tadqiqotida barqaror rivojlanish uchun yashil energiya strategiyalarini taklif etishgan. Barqaror energiya strategiyalari yashil energiya (masalan, shamol, quyosh, suv toshqini, biomassa) ko'p ishlab chiqariladigan mamlakatlar iqtisodiyotiga muhim hissa qo'shishi mumkin deb hisoblaydilar. Shu sababli, yashil energiya ta'minoti va rivojlanishiga investitsiyalar hukumat va boshqa organlar tomonidan ekologik xavfsizroq va barqaror kelajak uchun yoqilg'ilarni yashil energiya bilan almashtirish uchun rag'batlantirilishi kerak ekenligi asoslab berilgan [1].

Germaniyada yashil energiya bozorini rivojlantirish: samarali davlat siyosati va rivojlanayotgan mijozlar talabini o'rganish bo'yicha R. Wüstenhagen, va M. Bilharz tadqiqot olib borganlar. Ularning tadqiqotlarida qayta tiklanadigan energiya bozorini shakllantirishda energiya siyosati va yashil energiya marketingining nisbiy ahamiyatini o'rganilgan. Mijozlar talabiga asoslangan yashil energiya marketingi o'sib bormoqda, ammo hozirgacha cheklangan o'lchov ta'siriga ega. Taqiqotda yashil energiya marketingining potentsial nomoddiy foydalari va kelajakda bozorni rivojlantirish stsenariylarini muhokama qilingan [2].

Hozirgi vaqtda Xitoy har tomonlama yashil rivojlanish rejimiga o'tmoqda va yashil energiya samaradorligini oshirish ushbu transformatsiyaning asosiy tarkibiy qismidir. M. Meng, D. Qular o'z tadqiqotlarida Xitoydagi viloyatlarning yashil energiya samaradorligini Super-SBM va GML tahlili orqali tushuntirishgan. 2011–2018 yillardagi yakuniy ma'lumotlaridan foydalangan holda, ushbu tadqiqot Xitoyning 29 viloyatlarning yashil energiya samaradorligini hisoblash uchun Super-SBM (Slack-Based Model) va samaradorlik o'zgarishini tushuntirish uchun GML (Global Malmquist-Luenberger) indeks usulini qo'llaydilar.

Empirik tahlili natijalariga ko'ra Xitoyning yashil energiya samaradorligini oshirish bo'yicha asosiy siyosat yo'nalishlari mintaqaviy rivojlanishni muvozanatlash uchun transfer to'lovlaridan foydalanishni, energiya aylanishini osonlashtirish uchun viloyatlar o'rtasidagi to'siqlarni yo'q qilishni va qayta tiklanish ta'sirini yumshatish uchun energiya narxлари tuzilmasini yaxshilashni o'z ichiga oladi degan hulosaga keladilar [3].

Osiyoning yetakchi mamlakatlarida havo ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan qadam: yashil energiya, eko-innovatsiyalar va ekologik soliqlarning rolini Chien F va boshqalar o'zlarining tadqiqotlarida barafsil o'rganganlar. Atrof-muhitning buzilishi o'tmishda ham, hozirgi adabiyotlarda ham sezilarli darajada o'rganilgan bo'lsada uglerod emissiyasida atrof-muhit ifloslanishini va PM2.5 kabi ifloslanishini kamaytirishga qaratilgan qadamlar e'tiborga olinmagan. Ushbu tadqiqotda 1990 yildan 2017 yilgacha Osiyoning yetakchi mamlakatlari iqtisodiyoti uchun qayta tiklanadigan energiya, qayta tiklanmaydigan energiya, ekologik soliqlar va ekologik innovatsiyalarning rolini kuzatish orqali uglerod emissiyasi va PM2.5ni hisobga olgan holda ushbu bo'shliqni qoplashga harakat qiladilar.

Qisqa va uzoq muddatdagi empirik dalillar qayta tiklanadigan energiya manbalari, ekologik innovatsiyalar va ekologik soliqlarning uglerod chiqindilari va PM2.5 ga salbiy va sezilarli ta'sirini tasdiqladi. Vaholanki, qayta tiklanmaydigan energiya manbalari maqsadli iqtisodiyotlarda atrof-muhitning buzilishiga olib keladi. Va nihoyat, PM2.5 kabi uglerod emissiyasi va tumanning ifloslanishi bilan bog'liq turli xil siyosat oqibatları ularning tabiiy muhitga zararli ta'sirini nazorat qilish uchun taqdim etiladi degan hulosaga kelingan [4].

Mamlakatimiz olimlari tomonidan ham mazkur masala atroflicha o'rganilgan bo'lib, "Yashil iqtisodiyot" ning energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarining jahondagi

hozirgi holati tahlil qilingan va rivojlanish tendensiyalari Z.Nurov tadqiqotlarida o'z aksini topgan[5].

M. Abdullayevaning tadqiqotlarida esa O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha xarakteristik strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha ikkinchi badda iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligini oshorishga aloxida ahamiyat qaratilgan [6].

Jahonda "Yashil iqtisodiyot" ning energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning hozirgi holati tahlili va rivojlanish tendensiyalari D.Sh. ODINAEVning tadqiqotlarida o'rganilgan. Tadqiqotda jahonda «yashil iqtisodiyot»ning energetika sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalarning hozirgi holati tahlil qilingan va rivojlanish tendensiyalari aniqlangan. Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda «yashil iqtisodiyot», xususan qayta tiklanuvchi energiya manbalariga investitsiyalashning ahamiyati tadqiq etilgan [7].

Asosiy qism

Lider davlatlardan biri bo'lgan Janubiy Koreyada 2011 yildan boshlab YaIM ning 3% ni yoki 60 mlrd AQSh dollariga teng bo'lgan summani "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish uchun sarflash ko'zda tutilgan bo'lib, 1,8 mln ish o'rinlari barpo etilgan [8].

Milliy strategiya sifatida "Yashil" iqtisodiy o'sish konsepsiyasini tanlagan Janubiy Koreya asosiy e'tiborini sanoat, energetika va investitsiyalar, transportning "yashil" shakliga (elektromobil), ichimlik suvining alternativ manbalariga, chiqindilarni qayta ishlash texnologiyalariga, shuningdek, atrof muhitni ko'klamzorlashtirishga qaratmoqda. Janubiy Koreya 2011 yildan boshlab, ekologik innovatsiyalar bilan ishlab chiqarilgan tovarlar uchun "yashil to'lov kartalari"ni joriy qilgan. Mazkur kartalar yordamida "yashil" tovar va xizmatlarni iste'molini hisobga olish, shaxsiy transport vositasi o'rniga jamoaviy transportdan foydalanish, shuningdek, energiya tejamkor maxsulotlarni ishlatishda foydalaniladi.

AQSh da "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan muqobil energiya manbalarini rivojlantirish hisoblanadi. 2030 yilga qadar quyosh panellarini o'rnatish orqali mamlakat aholisi tomonidan iste'mol qilinayotgan 65 % energiya va 35 % issiqlikni ishlab chiqarishga erishiladi. AQSh uchun nafaqat "Yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb etish balki, 5 mln dan ortiq ish joylarini yaratish ham muhimdir.

Dunyo mamlakatlari qayta tiklanadigan energiya manbalariga o'tish bo'yicha o'z oldilariga ulkan maqsadlarni qo'ygan. Maqsadlar, shuningdek, Parij kelishuvining bir qismiga aylandi – 2030 yilga borib, uglerodsiz yechimlar global chiqindilarning 70 foizdan ortig'ini tashkil etadigan sektorlarda raqobatbardosh bo'lishi mumkin. Buni energiyaga o'tish – ko'mir iqtisodiyotini qayta tiklanadigan energiya bilan almashtirish jarayoni orqali amalga oshirish rejalashtirilgan.


Xalqaro energetika agentligi (IEA) "Energetika texnologiyalari istiqbollari" mavzusidagi hisobotida yangi energetika iqtisodiyotining imkoniyatlari va xatarlari hamda mamlakatlarning toza energiya sohasidagi sanoat strategiyalari muhokama qilingan.

Toza energiyaga o'tish yangi va kengayib borayotgan sanoat tarmoqlarida o'sish va ish bilan ta'minlash uchun katta imkoniyatlar yaratadi. 2030 yilga borib, yirik ommaviy ishlab chiqariladigan toza energiya texnologiyalari uchun yiliga qariyb 650 milliard dollarlik global bozor salohiyati mavjud. Bu bugungi kun darajasidan 3 baravar ko'proqdir.

Quyidagi diagrammada 2030 yilga qadar asosiy ekologik toza energiya texnologiyalarining bozor hajmini ko'rishimiz mumkin.

1-Diagramma

2030 yilga qadar asosiy ekologik toza energiya texnologiyalarining bozor hajmi (mlrd. \$)



Manba: Energiya texnologiyasi istiqbollari 2023 yilgi hisoboti asosida tuzilgan.

Asosiy ommaviy ishlab chiqarilgan toza birlashgan global bozor texnologiyalar - quyosh PV uskunalari, batareyalar, shamol tizimlari, issiqlik nasoslari, elektrolizatorlar va yonilg'i xujayralari - APSda 2030 yilga kelib yiliga 650 milliard dollarga etadi¹.

Toza energiya bo'yicha ish o'rinlari bugungi kunda 6 milliondan ikki baravar ko'proq bo'lsa, 2030 yilga kelib qariyb 14 millionga etadi, bu ishlarning yarmidan ko'pi elektr transport vositalari, fotovoltaik quyosh, shamol va issiqlik nasoslarida ishlaydi.

Buyuk Britaniya yashil texnologiya iqtisodiyotini milliy rivojlanish strategiyasi sifatida qabul qildi va yaqinda 100 000 yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan yashil loyihalarini taqdim etdi. Buyuk Britaniya parlamenti "Yashil" iqtisodiyotga o'tish maqsadida 2019 yilda mamlakatda 2050 yilgacha issiqxona va SO₂ zaharli avtomobil gazlarining atmosferaga chiqarilishini 100 % ga kamaytirish (nolga tushirish) to'g'risidagi qonunni qabul qildi. Ushbu qonun bo'yicha Buyuk Britaniya 2020 yili 1,4 trln funt sterling sarmoyani kiritishni rejalashtirdi. Bu 2020-2050 yillar davomida o'rtacha yiliga 50 mlrd funt sterlingni iqlim o'zgarishiga moslashtirish, SO₂ atmosferaga chiqarishni nolga tushirish, muqobil energiya iste'moliga o'tish, transportni elektrlashtirish, uy xo'jaliklarini muqobil energiya manbalarining iste'moliga o'tkazish, aholining chuchuk suv ta'minotini to'la ta'minlash, atrof-muhitni himoya qilish, maishiy, tijorat va sanoat chiqindilarini 60 % gacha qayta ishlash, 40 % ini biogazlarga aylantirish va inson salomatligi bilan bog'liq sohalarga sarmoya kiritishni rejalashtirgan.

¹ IEA (2023), *Energy Technology Perspectives 2023*, IEA, Paris <https://www.iea.org/reports/energy-technology-perspectives-2023>, License: CC BY 4.0


Iqlim o'zgarishi qo'mitasi (SSS) ma'lumotlariga ko'ra investitsiyalarning 40%i energetika tarmoqlariga, mamlakatning avtomobil parkini elektrlash (elektromobillarga o'tish) sohasiga, 24 % ini uy xo'jaliklarini issiq suv bilan to'la ta'minlash, aholining tabiiy gaz va toza chuchuk suv bilan ta'minlash, aholi punktlarini muqobil energiya manbalaridan (shamol va suv energiya manbalaridan) foydalanishini yaxshilash uchun 253 mlrd. funt sterling sarmoya kiritadi.

Yevropa Ittifoqining deyarli barcha mamlakatlarida energetika, jamoat transporti va infratuzilmasini rivojlantirish, ekoqishloqlar qurish, shuningdek, qayta ishlash tizimlari sohasida "yashil" chora-tadbirlar ishlab chiqilgan.

Quyidagi diagrammadan barcha OECD mamlakatlari uchun oylik elektr energiyasi ishlab chiqarish va savdo ma'lumotlari va boshqa bir qancha mamlakatlar uchun elektr energiyasi ishlab chiqarish ma'lumotlarini korish mumkin.

2-Diagramma

Elektr energiyasi ishlab chiqarish evolyutsiyasi, (OECD natijalari bo'yicha)¹



Manba: Energiya texnologiyasi istiqbollari 2023 yilgi hisoboti asosida tuzilgan.

OECD tarkibiga kiruvchi mamlakatlarda jami sof elektr energiyasini ishlab chiqarish 2022-yil dekabr oyida 939,7 TVt/soatni tashkil etdi, bu 2021-yil dekabriga nisbatan 0,3%ga kam. 2022-yil davomida jami elektr energiyasini ishlab chiqarish 2021-yilga nisbatan 0,8% yoki 89,5 TVt/soatga oshdi.

Amerikadagi OECD mamlakatlarida 2022-yil dekabr oyida umumiy sof elektr energiyasini ishlab chiqarish 471,5 TVt/soatni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu oyiga nisbatan 5,4 foizga ko'pdir. Yil davomida jami elektr energiyasi ishlab chiqarish yiliga 2,3 foizga yoki 2021 yilga nisbatan 125,7 TVt/soatga oshdi.

¹IEA (2023), Monthly Electricity Statistics, IEA, Paris <https://www.iea.org/data-and-statistics/data-tools/monthly-electricity-statistics>.

2022-yil dekabr oyida AQShda jami elektr energiyasi ishlab chiqarish 369,6 TVt/soatga o'sdi, bu o'tgan yilning shu oyiga nisbatan 6,9 foizga ko'pdir. haroratning pasayishi bilan isitish talabining oshishi tufayli.

Yaponiyada atom energiyasini ishlab chiqarish ham o'tgan yilning shu davriga (-7,1%), yil boshidan (-15,4%) kamaydi. 2011-yilgi Fukusima-Daichi yadroviy falokatidan keyin qabul qilingan qarorlarni bekor qilib, so'nggi yillarda mamlakat atom energiyasiga tobora ko'proq tayanmoqda.

Yevropada bugungi kunda ekologik toza manbalardan energiya ishlab chiqarish sohasida yetakchi davlat Germaniya hisoblanadi. Germaniya hukumati Yaponiyaning «Fukusima-1» AESidagi avariya bilan so'ng qayta tiklanadigan energiya manbalariga juda katta mablag' tikdi. Keyinchalik kansler Angela Merkelning kabineti 2022 yilgacha Germaniyaning barcha 17 ta atom elektr stansiyalarini bosqichma-bosqich ishdan chiqarishga, ya'ni tugatishga qaror qildi. Shuningdek, qayta tiklanadigan energiya mamlakatning energiya importiga bog'liqligini kamaytiradi va iqtisodiyotning ushbu sektoridagi monopoliyalarga qarshi kurashishda yordam beradi deb taxmin qilingan.

Germaniyada 2022-yil dekabr oyida umumiy sof elektr energiyasi 47,4 TVt/soatni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu oyiga nisbatan 8,8 foizga kamaydi. Bu pasayish, asosan, yiliga 51,7 foizga yoki 2,9 TVt/soatga kamaygan yadroviy energiya ishlab chiqarish, qayta tiklanadigan energiya (yilga nisbatan -4,4 foiz yoki 0,9 TVt/soat) va qazib olinadigan yoqilg'i (yilga nisbatan -2,8 foiz yoki 0,7 TVt/soat) bilan bog'liq.

OECD tarkibiga kirmaudigan boshqa mamlakatlarda masalan: Hindistonda quyosh energiyasi ishlab chiqarish 2022 yil dekabr oyida 8,0 TVt soatni tashkil etdi, bu o'tgan yilning shu oyiga nisbatan 66,0 foizga ko'pdir. 2022-yilda quyosh energiyasi ishlab chiqarish 92,2 TVt/soatni tashkil etdi, bu 2021-yilga nisbatan 36,9 foizga yoki 24,8 TVt/soatga ko'p.

Braziliyada gidroenergetika ishlab chiqarish 2022-yil dekabrda 37,7 TVt/soatni tashkil etdi, bu 2021-yil dekabriga nisbatan 17,1 foizga yoki 5,5 TVt/soatga ko'p. 2022. Darhaqiqat, butun 2022 yil davomida mamlakatimiz gidroelektr stansiyalarida 423,0 TVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarildi, bu 2021-yilga nisbatan 24,0 foizga yoki 81,9 TVt/soatga ko'pdir¹.

O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tish strategiyasini ro'yobga chiqarish muqobil energetikani rivojlantirishni nazarda tutadi. Elektrotexnika sanoati korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalari (QTEM) tizimini yaratish loyihalarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ladi, buning uchun kamida 1 mlrd dollarlik butlovchi qismlar talab qilinadi. QTEM ishlab chiqarish quvvatini 15 GVtgacha hamda elektr energiyasi ishlab chiqarish umumiy hajmida ularning ulushini 30 foizdan ziyodga oshirish nazarda tutilgan.

Prezident Murojaatnomasida hududlardagi xonadon va korxonalarda umumiy quvvati 5-10 MVt bo'lgan QTEM qurilmalaridan foydalanish loyihalarini amalga oshirish zarurligi qayd etilgan. Kelgusi 3 yilda barcha davlat tashkilotlarida quyosh panellari va issiq suv kollektorlari o'rnatiladi. Buning uchun 2 mlrd dollar miqdorida investitsiyalar jalb qilinib, uning hisobidan elektr energiyasi va gaz iste'molining 60 foizi "yashil energiya"ga o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

Xulosa va takliflar

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, "yashil iqtisodiyot" mintaqaviy rivojlanishni, ijtimoiy barqarorlikka erishishni, "yashil iqtisodiyot" tarmoqlarida yangi ish o'rinlari yaratilishi orqali

¹ IEA (2023), *Monthly Electricity Statistics*, IEA, Paris <https://www.iea.org/data-and-statistics/data-tools/monthly-electricity-statistics>.

iqtisodiy salohiyatni oshirishni rag'batlantiradi. «Yashil iqtisodiyot», asosan, iqtisodiy taraqqiyotga yordam beradi va yalpi ichki mahsulotning o'sishini, mamlakat daromadlarini oshirishni, aholini ish bilan ta'minlaydi, mamlakatda ishsizlik darajasini pasaytiradi. Shu bilan birga, "yashil iqtisodiyotga" o'tish iqlim o'zgarishi, foydali qazilma minerallarning yo'qolishi va suv resurslarining tanqisligi kabi global tahdidlar xavfini kamaytiradi. Ammo butun jahon rivojlanishini olib qaralsa, uning umumiylik xususiyati namoyon bo'ladi, ya'ni, bugungi dunyo sivilizatsiyasi kuch to'plagan, o'z qudratining eng yuqori nuqtasiga yetgan vaqtda jahonning barcha mamlakatlari iqtisodiy rivojlanishda ekologik yo'naltirilgan model tanlamas ekan, globallashuv sharoitida butun sayyoraning asta-sekin tanazzulga yuz tutishi va butunlay yo'q bo'lib ketishgacha borish xavfi yuzaga keladi, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi energetikasining bugungi kundagi vaziyati bir muncha og'ir holda o'rnatilgan quvvat xujjatda 12 GVt ni tashkil etsa-da, amalda 10 GVt mavjud, Respublika ehtiyoji esa 15-20 GVt quvvatni talab qilmoqda.

Avvalambor, ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga yetib boradigan elektr energiya yo'qotishlarining oldini olish zarur. Masalan, xorij davlatlarida yo'qotish 5 %ni tashkil etadi, O'zbekistonda esa mazkur ko'rsatkich 20 % ni tashkil etadi.

O'zbekistonda shamol energiyasi, suv energiyasi va quyosh energiyasiga qilingan investitsiyalar shunga olib keladiki, O'zbekiston uchun zarur bo'lgan elektr energiyasini ehtiyojimizdan 6 marta ko'p ishlab chiqarish imkoniyati vujudga keladi. "Yashil iqtisodiyot"ni moliyalashtirishga bo'lgan ehtiyojni qondirish imkoniyatlarining mavjudligi, jadal o'sish va kapital bozorining «yashil iqtisodiyot»ga yo'naltirilganligining oshib borishi, uglerodli moliyalashtirish va mikromoliyalashtirish kabi bozor dastaklarining rivojlanib borayotgani hamda oxirgi yillardagi iqtisodiy pasayishga javoban tuzilayotgan fondlar global "yashil" iqtisodiyot rivojlanishiga qaratilgan "yashil" iqtisodiyot islohotlarini keng miqyosli moliyalashtirish imkonini taqdim etmoqda.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Midilli, A., Dincer, I., & Ay, M. (2006). Green energy strategies for sustainable development. *Energy policy*, 34(18), 3623-3633.
2. Wüstenhagen, R., & Bilharz, M. (2006). Green energy market development in Germany: effective public policy and emerging customer demand. *Energy policy*, 34(13), 1681-1696.
3. Meng, M., & Qu, D. (2022). Understanding the green energy efficiencies of provinces in China: A Super-SBM and GML analysis. *Energy*, 239, 121912.
4. Chien, F., Sadiq, M., Nawaz, M. A., Hussain, M. S., Tran, T. D., & Le Thanh, T. (2021). A step toward reducing air pollution in top Asian economies: The role of green energy, eco-innovation, and environmental taxes. *Journal of environmental management*, 297, 113420.
5. Нуров, З., & Ражабова, М. Х. (2022). «ЯШИЛ ИҚТИСОДИЁТ» ДА ЭНЕРГЕТИКА СОҲАСИНИНГ ИҚТИСОДИЙ. *Central Asian Academic Journal of Scientific Research*, 2(5), 781-787.
6. Abdullayeva, M. (2019). Яшил иқтисодиётни шакллантиришда энергия сарфини камайтиришнинг асосий жихатлари. *Архив научных исследований*.

7. Одинаев, Д. Ш. (2018). Жаҳонда «яшил иқтисодиёт» нинг энергетика соҳасига йўналтирилган инвестицияларнинг ҳозирги ҳолати таҳлили ва ривожланиш тенденциялари. *Экономика и финансы (Узбекистан)*, (7), 2-13.
8. Афанасьев В. Нам пора реально включиться в борьбу против угрозы глобальной экологической катастрофы - Россия вполне в состоянии стать локомотивом развития экологических технологий / В. Афанасьев // БОСС. Бизнес: организация, стратегия, системы. - 2013. - № 11. - С. 42-55.
9. IEA (2023), *Monthly Electricity Statistics*, IEA, Paris <https://www.iea.org/data-and-statistics/data-tools/monthly-electricity-statistics>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

Махсус сон

№ S/2 (3) – 2023

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

Специальный выпуск

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES Special Issue

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамият

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).